

**SCIENCE**  
**PROBLEMS.UZ**

ISSN: 2181-1342 (ONLINE)

**№ S/5 (3) - 2023**

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРЬ МУАММОЛАРИ

---

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

---

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES  
AND SOCIAL SCIENCES



**ЭЛЕКТРОН ЖУРНАЛ**

ЭЛЕКТРОННЫЙ ЖУРНАЛ

ELECTRONIC JOURNAL

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*№ S/5 (3)-2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### *07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### *08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### *09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети.

### *10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### *12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАРИ:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат ҳавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби

#### *13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Ҳашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шоҳида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

#### *19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васида Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш

ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

#### *22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

#### *23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атакулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

---

## **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

### **Crossref DOI:**

Тахририят Crossref DOI нинг расмий аъзоси ҳисобланади ва 10.47.390 DOI префиксига эга. Ҳар бир нашр ва илмий мақолага индивидуал Crossref DOI рақами берилади.

### **Google Scholar**

Журнал Google Scholar (Академия) да индексацияланади.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.  
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Тахририят манзили:**  
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: [scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)  
Телеграм канал: [https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ

- Кайпова Малика Дауытбай қизи*  
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ ТАРИХИЙ МАДАНИЙ ОБЪЕКТЛАР ВА УЛАРНИНГ ҲУДУДДА  
ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДАГИ ЎРНИ .....9-13
- Фарманова Гульнара Комилевна*  
АРХЕОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ Г.А.ПУГАЧЕНКОВОЙ НА ТЕРРИТОРИИ  
САМАРКАНДСКОГО СОГДА ..... 14-19
- Aminov Xurmatbek Вахрам о'g'li*  
HUNARMANDCHILIK RIVOJI UCHUN YANGI IMKONIYATLAR ..... 20-25
- Мустафоев Жонибек Аралбоевич*  
“ПАХТА ИШИ”НИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТГА ТАЪСИРИ ВА УНИНГ ФОЖИАЛИ  
ОҚИБАТЛАРИ (НАВОЙИ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА) ..... 26-31
- Yunusxo'jayev Habibulla Zafar o'g'li*  
O'ZBEKISTON TARIXIY TARAQQIYOTNING ZAMONAVIY BOSQICHIDA IJTIMOY DAVLATNI  
SHAKLLANTIRISHNING KONSTITUTSIYAVIY ISTIQBOLLARI .....32-36
- Маҳмудон Эркин Асқаралиевич*  
АРАБ ХАЛИФАЛИГИ ИСТИЛОСИ ДАВРИДА ФАРҒОНАДАГИ СИЁСИЙ ЖАРАЁНЛАР ....37-45
- Назаров Комил Шамсуддинович*  
ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ТИЗИМИДА КАДРЛАР ТАЙЁРЛАШ МАСАЛАЛАРИ .....46-51
- Матажонов Раҳимжон Акрамович*  
O'ZBEKISTONDA MUSTAQILLIK YILLARIDA TARIXCHI KADRLAR TAYYORLASH SOHASI  
HUQUQIY ASOSLARINING YARATILISHI .....52-58
- ### 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ
- Остоноқулов Азамат Абдукаримович, Султонов Омон Жума ўғли*  
ДАВЛАТ ОТМЛАРИДА БЮДЖЕТДАН ТАШҚАРИ МАБЛАҒЛАР ҲАРАКАТИ ТЎҒРИСИДАГИ  
ҲИСОБОТЛАРНИНГ АХБОРОТ ИМКОНИАТЛАРИНИ ОШИРИШ ЙЎЛЛАРИ ..... 59-69
- Narmamatov Ixtiyor Baxtiyorovich*  
DEVELOPMENT ADVANTAGES OF CASHLESS PAYMENTS IN THE PAYMENT SYSTEM OF  
UZBEKISTAN ..... 70-75
- Хамраев Джамшид Панжиевич*  
ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИДА МАҲАЛЛИЙЛАШТИРИШНИ МОЛИЯЛАШТИРИШНИНГ  
ИҚТИСОДИЙ МОҲИЯТИ, РИВОЖЛАНИШ БОСҚИЧЛАРИ ВА ЗАРУРЛИГИ ..... 76-81
- Кулибоев Азамат Шоназарович*  
ДАВЛАТ ТИББИЁТ ТАШКИЛОТЛАРИДА ҲИСОБ СИЁСАТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ  
УСЛУБИЁТИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ ..... 82-91
- Axmedova Nazokat Zikirillo qizi*  
KORXONA MARKETING STRATEGIYASIDA RAQAMLI STRATEGIYADAN FOYDALANISH  
USULLARI VA AFZALLIKLARI ..... 92-97

<i>Саатмуротов Шохрух</i> МИНТАҚАДА САНОАТ ИШЛАБ ЧИҚАРИШНИНГ БАҲОЛАШ ОМИЛЛАРИ .....	98-103
<i>Шакирова Фароғат Болтаевна</i> АҚШ ИҚТИСОДИЁТИНИНГ ИННОВАЦИОН ТИЗИМИ ОМИЛЛАРИ, ТАРКИБИ ВА РИВОЖЛАНИШ НАЗАРИЯСИ .....	104-113
<i>Кадиров Лутфулло Халимович</i> ТИЖОРАТ БАНКЛАРИ МОЛИЯВИЙ БОШҚАРУВ ТИЗИМИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШ МУАММОЛАРИ .....	114-121
<i>Ibragimova Zarema Zokirovna</i> DUNYONING IQTISODIY RIVOJLANGAN MAMLAKATLARINING BOSHQARUV TASHKILINI TASHKIL ETISH VA ULARNI ICHKI IQTISODIYOTGA TATBIQ ETISH TAJRIBASI .....	122-129
<i>Қодиров Азизжон Анварович</i> «COVID-19» ИНҚИРОЗИНИНГ ЖАҲОН ЭКОТУРИЗМ ИНДУСТРИЯСИ РИВОЖЛАНИШИГА ТАЪСИРИ .....	130-137

### **09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ**

<i>Sharipov Dilshod Baxshilloyevich</i> JON LOKKNING TABIIY HOLAT VA TINCHLIKKA OID QARASHLARI .....	138-145
<i>Rahmatova Xolidaxon Xolikovna</i> ХОҲА АНРОР ВАЛИЙНИНГ ТИНЧЛИК, ОСОЙИШТАЛИК ВА НАМЎНАТЛИККА ДОИР Г'ОЙАЛАРИ – ВАРҚАРОР ТАРАҚҚИЙОТ ОМИЛИ СИФАТИДА .....	146-151
<i>Орзиев Иқболжон</i> АХБОРОТЛАШГАН ЖАМИЯТДА СЕКУЛЯРИЗМ ОМИЛИНИНГ ИЖТИМОЙ АҲАМИЯТИ .....	152-157
<i>Turabova Sevara Kattaqulovna</i> ILMIY MUAMMOLARNI HAL ETISHDA VAHS-MUNOZARALARNING TUTGAN O'RNI.....	158-165

### **10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ**

<i>Israil Mukaddas Irgashevna</i> BOSMA MEDIA TILINING SOTSIOLINGVISTIK ASPEKTDI O'RGANISH USULLARI .....	166-172
<i>Nishonova Xurshida Yusufjanovna</i> A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR .....	173-178
<i>Маматкулова Камола Шавкат кизи</i> ИСТОРИЯ ВОЗНИКНОВЕНИЯ ПОНЯТИЯ ПРЕЦЕДЕНТНОСТИ В ЛИНГВИСТИКЕ И ЕГО РОЛЬ В ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИИ .....	179-184
<i>Hamroyeva Dilfuza Jamolovna</i> O'ZBEK XALQ QO'SHIQLARIDA YUZ SOMATIZMINING BADIY TALQINI .....	185-189
<i>Mahmudova Xushnoza Ravshanbekovna</i> OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA MOLIVAVIY SAVODXONLIKNI OSHIRISH	

MASALALARI .....	190-195
<i>Ismonova Yorqinoy Abdumutalib qizi</i> ROMANDA ROVIY BOLA OBRAZI.....	196-200
<i>Mirzoyev Masudjon Kimsanovich, Niholchonova Navbahor</i> FARZONA XO'JANDIY SHE'RLARIDA MIFOLOGIK PERSONAJLAR BADIY IFODASINING XUSUSIYATLARI .....	201-206
<i>Kholiyorov Bunyod</i> THE CONDITION OF DEVELOPMENT OF LEXICAL COMPETENCE USING AUTHENTIC MATERIALS IN TEACHING ENGLISH IN NON-PHILOLOGICAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS .....	207-213
<i>Hazratqulov Mutallib Rashidovich, Gulxanova Fotima, Qarshiboyeva Muborak</i> NUTQNI IDROK ETISH QONUNIYATLARI .....	214-219

### **12.00.00 – ЮРИДИК ФАНЛАР**

<i>Файзиев Шухрат Хасанович</i> ПОНЯТИЕ И ОСОБЕННОСТИ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ ПОЛИТИКИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН В КОНТЕКСТЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ .....	220-225
<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i> ATOM ENERGIYASINING XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING XALQARO-HUQUQIY ASOSLARI .....	226-233
<i>Safoeva Sadoqat Musoeva</i> IJTIMOIY TARMOQLARDA FUQAROLIK-HUQUQIY MUNOSABATLARNI HUQUQIY TARTIBGA SOLISH ISTIQBOLLARI .....	234-246
<i>Бокиев Жаҳонгир Нурматжон ўғли</i> АЛОҲИДА ТАЪЛИМ ЭҲТИЁЖЛАРИ БЎЛГАН ШАХСЛАРНИНГ ОЛИЙ ТАЪЛИМ ОЛИШ ҲУҚУҚИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ҲУҚУҚИЙ МАСАЛАЛАРИ .....	247-253
<i>Турсунова Маликахон Улуғбековна</i> ЗАМОНАВИЙ ДАВЛАТДА ДИПЛОМАТИК ФАОЛИЯТ ШАКЛЛАРИ: ИСЛОХОТЛАР ВА ҚОНУНЧИЛИК ТАРТИБОТИГА БЎЛГАН ЭҲТИЁЖ .....	254-258

### **13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ**

<i>Atamatov Abduxalil Salomovich</i> OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MUSTAQIL SOATLARNI O'QITILISHINING KOMPETENSIYAVIY O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	259-265
<i>Omarova Gavhar Sadikovna</i> HUQUQ FANINI O'QITISHDA TA'LIMNI TABAQALASHTIRISHNING PEDOGOGIK-PSIXOLOGIK JIHATLARI: DIDAKTIK O'YINLAR MISOLIDA .....	266-271
<i>Baratov Jo'raqo'zi Shukurjon o'g'li</i> BO'LAJAK PEDAGOGLARNING KASBIY FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA NOSTANDART TOPSHIRIQLARNING ROLI VA AHAMIYATI .....	272-277

---

<i>Kuchkarova Arofathon</i> THE IMPORTANCE OF GEOGEBRA IN ENHANCING STUDENTS' LEARNING OF MATHEMATICS AT SCHOOLS .....	278-283
<i>Tojiyeva Xolida Baxtiyorovna</i> UMUMTA'LIM MAKTABLARI ADABIYOT DARSLARIDA ASAR BADIYYATINI O'QITISH TARIXI .....	284-288
<i>Masharipov Ravqat Madraximovich</i> KURASH BILAN SHUG'ULLANUVCHI TALABA SPORTCHILARDA TAYYORGARLIK BOSQICHLARINI KUN VA HAFTALIK MIKROTSIKLLARDA MASHG'ULOT YUKLAMALARINI OPTIMAL ME'YORLASH .....	289-295
<i>Niyozmatov Anvar Bahodirovich</i> XORAZM XALQ O'YINLARI .....	296-303
<i>Qodirov Xasanboy Oribjonovich</i> OLIJ TA'LIM MUASSASASI TALABALARIDA LIDERLIK SIFATLARINI SHAKLLANTIRISH BOSQICHLARI .....	304-309
<i>Kejaboev Abdusalim Erkaboevich</i> PEDAGOGIK MENEJMENT VA ZAMONAVIJ RAHBAR KOMPETENTLIGI .....	310-315
<i>Axmadjonova Farangiz Axrorjon qizi</i> OLIJ TA'LIM MUASSASALARIDA MASOFAVIY TA'LIM MAZMUNI VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING DIDAKTIK – USLUBIJ TA'MINOTI .....	316-322



10.00.00-Филология фанлари

**Nishonova Xurshida Yusufjanovna**  
Namangan Davlat universiteti, tadqiqotchi  
Elektron manzil: [namangan87@mail.ru](mailto:namangan87@mail.ru)

### **A'ZAM O'KTAM SHE'RIYATIDA MILLIY RUHNING IFODALANISHIDA E'TIQODIY QARASHLAR**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolamizda shoir A'zam O'ktam she'rlarida e'tiqodiy qarashlar orqali milliy ruhning ifodalanishiga oid she'rlar tahlilga tortilgan. Azam O'ktam ijodida o'zgacha badiiyatga ega bo'lgan "Osmon yaqin" to'plamida davom ettirilgan milliy ruh va uning she'riyatdagi o'rni xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar.** Obraz, tasavvuf, poetik ifoda, milliy mentallik, an'ana, qadriyat, mumtoz an'ana.

**Nishanova Khurshida Yusufjanovna**  
Namangan State University, researcher

### **ECCLESIASTICAL VIEWS IN THE EXPRESSION OF THE NATIONAL SPIRIT IN THE POETRY OF AZAM OKTAM**

**Abstract.** In this article, poems on the expression of the national spirit through ecclesiastical views are drawn into analysis in the poems of the poet A'zam O'ktam. Azam O'ktam talks about the national spirit and its place in poetry, which is continued in the collection "Heaven Is Near", which has a special artistry in the work.

**Keywords.** Image, mysticism, poetic expression, national mentality, tradition, value, classical tradition.

**Нишановой Хуршида Юсуфджановна**  
Наманганский государственный университет, исследователь

### **РЕЛИГИОЗНЫЕ ВЗГЛЯДЫ НА ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОГО ДУХА В ПОЭЗИИ АЗАМА УКТАМА**

**Аннотация.** В этой статье анализируются стихи поэта Азама Уктама, касающиеся выражения национального духа через религиозные взгляды. Особое внимание в творчестве Азама Уктама уделяется национальному духу и его роли в поэзии, которая была продолжена в сборнике "Небо близко", отличающемся особым искусством.

**Ключевые слова.** Образ, мистика, поэтическое выражение, национальная ментальность, традиция, ценность, классическая традиция.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPI1342V3SI5Y2023N24>

Lirika insoniyat badiiy tafakkurining ibtidosidan beri shakliy va mazmuniy o'zgarishlarga uchraganiga qaramasdan o'zining asl qiyofasi, jozibasi va faolligini yo'qotmay kelayotir. Shu jihatdan XX asr she'riyati butkul yangi poetik shakl, yangi lirik mohiyatda

namoyon bo'ladil[3.56]. Ushbu turga xos poetik mezonlar mukammal darajada hanuz ishlab chiqilgan emas. Shunga qaramay, adabiyot nazariyasi aslo bu tur haqida so'nggi xulosani ayta olmaydi. Bu esa lirikaning doimiy o'zgarishlar og'ushida ekanidan dalolat.

Lirika ijtimoiy, siyosiy, milliy madaniy, adabiy muhit va biror ijodkorda ruhiy holat o'zgarishi bilan shakl va mazmun jihatdan harakatga kelishi mumkin. Shu ma'noda biz lirika haqida gapirayotganda uning umuminsoniylikka daxldor tamoyillari mavjudligini nazardan chetda qoldirmasligimiz kerak.

Inson va ilohiyot, odam va olam aro ma'naviy-ruhiy evrilishlar she'riy asar dunyoga kelishi uchun asosdir. Insonning o'zini anglashga mayli mavjud ekan lirikaga ehtiyoj bo'ladi. XX asr ulkan informatsion texnologik takomilni boshidan o'tkazdi. Garchi jadallik bilan fan texnikaga intilmasin insoniyat moddiy ehtiyoji bilangina cheklanmadi. Moddiyatning turfa tashvishlaridan charchagan odam hissiyotlarga, xayollarga erk berish yashashning mazmuni ekanini angladi. Bu esa asrlar davomida o'z o'zini yangilab kelayotgan poetik tafakkurga talabni oshirdi.

Asalarining xatti-harakatini kuzatganmisiz?! U tiyraklik bilan eng noyob gullardan saralab, Xoliq ijod etgan maxluqotlarning eng oliysi – inson uchun bol yig'adi. Uning funksiyasi – shu. Uning a'moli – shu. Uning qismati – shu. U bundan malollanmaydi, lazzatlanadi. Xudo insoniyatni insho eta turib Shoirlarga ham ana shu fidoyilikni, jonkashlikni berganmikin, deb o'ylab qolaman. Negaki Shoirlar ham ko'ngil atalmish bo'stonda unayotgan nafis kechimlar, sezgilar, tuyg'ularning eng noyoblarini yig'ib, she'r tuzadilar. Ular bu ishlaridan naf ko'zlamaydilar, zahmatidan og'rinmaydilar, yengillik tuyadilar.

A'zam O'ktam she'riyatida his-tuyg'u, ruhiyat, fikr, ramz shoirning ulkan umuminsoniy dardi milliy ruhni ifoda ekan original adabiy voqelikka aylanadi.

Qur'oni Karimning "Shuaro" surasida shoirlarning o'zlari qilmaydigan narsalarini gapiradigan, so'z vodiylarida adashib yuradigan imonsiz bir toifasi haqida so'z boradi. "Illo" istisnosidan keyin esa so'zlari amallariga muvofiq keladigan shoirlarning ham borligi, ularning haq yo'ldan ozmagani to'g'risida fikr keladi[1.78]. Haqiqat yo'lida, haq so'zida sobitlik, so'zi, qalami bilan adolat, haqiqat uchun kurashish, insonlarni ezgulikka chorlash A'zam O'ktam she'rlari tabiatiga xos xususiyatdir.

Shoirning dalda she'rida:

O't-o'lan aytar salavot,

Jo'r bo'l, ey, A'zam O'ktam!

degan misralarida butun olamni yer-ko'kning, hatto mitti maysalarning ham Xoliqqa hamd va salavot aytish va bu salavotga jo'r bo'lish maqomidan turib aytilgan misralar shoir e'tiqodi, milliy mentalligini belgilovchi jihatdir.

O'chsa elning chirog'i,

Ko'r bo'l, ey, A'zam O'ktam.

Shoirning o'z-o'ziga murojaati, o'z-o'zini poklash yo'lidagi qadamlardandir. Zero shoirning lirik qahramoni o'z-o'zini taftish qilishga kirishgan shaxs sifatida namoyon bo'ladi.

A'zam O'ktamning "Osmon yaqin" deb nomlangan she'riy to'plamida shoirlik qismatini ixtiyor etgan va bundan rozi muallif qiyofasi ko'z oldimda namoyon bo'ladi. Kitobda shoirning olam va odam haqida o'ziga xos qarashlari bor. Shundan bo'lsa kerak u she'rlarida balandparvoqlik bilan soxta tuyg'ularni ezmalanmaydi, ko'nglida borini beradi, tuyganlarini

bo'rttiraydi. Balki she'rlaridagi ohangrabolik, diltortarlik shundandir. Shoirning kitobidan olingan "Kafolat" she'ridan "Vatan" so'zini ko'rmay kishi vatanni his qiladi kishi!

Hech yurmasman qunishib,  
 Bor suyanch tog'im – otam.  
 Qolmaydi qalb uvishib,  
 Bor duogo'yim – onam.  
 To'ymoq onimas bu dam,  
 Bu dunyoga ko'nglim bor.  
 G'am yo'q ketar bo'lsam ham,  
 Ortimda zo'r o'g'lim bor.  
 Nening tashvishin qilay,  
 Tanisa u islomni,  
 Ayta olsa tutilmay,  
 "Turkiston" degan nomni. [2.112]

Milliy mentallik nuqtai nazaridan qaraganda Vatan yagona, shu bilan birga Vatan — hamma narsa. Shoir vatan tasvirida suyanch bo'lgan ota, duogo'y — ona, kelajak — farzand singari e'tiqod, inonch bilan bog'liq obrazlardan unumli foydalanar ekan milliylik, umuminsoniylik, e'tiqodni umumiy aspektida tasvirilaydi. Vatan madhiga umrida biror marta ham qo'l urmagan ijodkorning o'zi yo'q. Kimdir vatanni o'zi bilan birlikda ko'rsa, kimdir uning shavkati shonini, kimdir uning tarixini kimdir esa bugunini misralarda chizadi. Umuman olganda har bir individning vatan haqida o'z tushunchasi bor. Shoir Vatan bog'lari, qudrati yoki madhiga bel bog'lamaydi, aksincha, o'zi uchun aziz bo'lgan xotiralar, insonlarning mavjudligi, ular bilan bog'liq voqealarni yodga ola turib, vatanni o'shalar bilan mavjudlikda tasvirilaydi. Shoirning estetik ideali vatan va uning o'tmishi sarqitlarining hamda bugunning maqsadlari, ertadan umidvorlik oqibatlarini real tasvirlash va xalqni shu holatdan chiqishga chorlashdir. Mana shu pafos A'zam O'ktamning she'rlaridagi fikr va hissiyot birligi, fikr va e'tiqod birligini asarlarining asosiy g'oyasini, ijodning umumiy yo'nalishi milliy ruhni tayin etadi. U orzudan, armondan, turmush atalmish hodisotning anduhlaridan ulug'vorlik kasb etgan oppoq ranggaingan ko'ngildagi tilakdan anglashiladi. Tilak taftida yashaydi, yashnaydi. Tilak ranglarida, siyomosida gavdalanadi.

She'r – balo, ishq – balo, so'z – balo.  
 Faqat balo ko'rib yashaylik.  
 She'r – armon, ishq – armon, so'z – armon,  
 Dunyodan armonsiz ketmaylik.  
 Saodat, sadoqat gulxandir,  
 Biz mangu yonaylik gulxanda.  
 Uy – Vatan, kuy – Vatan, o'y – Vatan,  
 Orzuga etaylik vatanda[2.117].

Shoirning "Orzuga etaylik vatanda..." satrida ham o'ziga xos qarashlar zalvorini sezish mumkin. Tilakning botini tasvirida ham, zohiri tasvirida ham asosiy mohiyat Shoir estetik ideali bilan bog'liq. Boshlang'ich manzildan to so'nggi manzilgacha insoniyat maishiy tashvishlar girdobida bo'ladi. Kunlik odatlardan chekinib, safarga otlangan inson tinimsiz manzil tomon oshiqadi. Safar chog'i har nafasda, har soniyada ko'ngil deb atalgan tizginsiz ne'mat o'ylashdan to'xtamaydi. To'xtadimi, demak u o'lgan sanaladi. Inson o'ylarining cheki-chegarasi yo'q. Mana

shunday vaziyatda inson xotirjam bo'ladi. U to'xtamas ekan turmush g'avg'olari uni iztirobga sola olmaydi, xotirjamlikni his qiladi. Xotirjam odamgina o'z hayotiga nazar sola oladi. Qadrdonlari haqida xayol suradi. Yaqinlari iztirobi bilan yashaydi. Ertadan, ertasidan umid qiladi. Shoirning "Tarbiya" nomli she'ridagi ezgu niyat o'g'li Temurbekka aytilganiga qaramay, aslida bu so'zlar barcha otalar tomonidan farzandlarga aytilayotgan o'git:

Mendan ko'mak emas, yo'l-yo'riq so'rang,  
 Bor bilimim sizga, davlatim sizga.  
 Jon bolam, ko'nikkim kelmaydi sira,  
 Hozirdan yengilib qaytishingizga[2.118].

Shoir she'rlarini o'qish jarayonida ijodkor adabiyot xazinasini boyitishi yoki o'z millati qalbidan chuqur o'rin olishi uchun ko'plab – qator jildlab asarlar yozishi shartmas degan xulosa keladi odam. Boqiy she'riyat ruhning erkin parvozidir; to'g'ri to'rtburchak shakl ichiga joylangan har qanday matn she'r bo'lavermaydi degan xulosalar chiqaradi.

"Ibodot" deb nomlangan she'rda esa quyidagilar aytiladi:  
 Tog'lar some' bo'lib o'ltirishar jim,  
 Takbir aytgan chog'i guldirab samo.  
 U yanglig' munojat qila olur kim,  
 Yomg'ir bu — pichirlab qilingan duo.  
 Yel yig'lar yer tirnab, tuproq seskanar,  
 Maysalar qaltirab qilurlar sajda.  
 Duolar ijobat bo'lgan sanalar,  
 Kun nurlari butun keltirar mujda.

Butun mavjudot, er-u osmondagi narsalar Allohga sajda qilishi, Allohni ulug'lashi ajoyib bir uslub bilan tavsif qilinadi. Shu falsafa, mana shunday ruhda aytilgan she'rlar, albatta, e'tiqod bilan bog'liqligi o'quvchilarda imonga ehtiyoj uyg'otadi. Shoir she'rlariga diqqat qilsangiz, u haqiqatan tom ma'noda e'tiqod kuychisi. E'tiqodni turfa sinoati va jozibasini go'zal usulda sharh etadi. Ko'plab she'rlarida, avvalo, Allohga, so'ng inson va barcha yaratiqlarga muhabbatni his qildiradi. A'zam O'ktam she'riyati Qur'on va sunnatga tayangan mohiyat bulog'idan suv ichgan. U inson tarbisi jihatidan va ko'ngilga va insonning ichki dunyosiga taalluqli bo'lgan uchun ham e'tiqod chizgisi bo'la oladi. Shuning uchun ham o'zining bandalik mas'uliyatini sezishga va tabiatga Allohning ulug' qudratini namunalari sifatida hurmat bilan qarayotgan solik qahramon – idealni aks ettiradi.

Ijodkor ko'pincha asar badiiy g'oyasini tabiatdan olingan ramzlar vositasida ifoda qiladi. Har bir shoirning poetik olamini ko'rsatadigan betakror obrazlari bo'ladi. Deylik, "Binafsha senmisan, binafsha senmi" deganda Cho'lpon esga keladi. "Na'matak" Oybekdan darak beradi. "O'rik gullaganda" Hamid Olimjonga ta'bir, "Majnuntol tagiga o'tqazing meni" – Mirtemirning shoh satri. Shavkat Rahmon she'rlarida "tog'" obrazi ko'p uchraydi. Shoirning "Uyg'oq tog'lar" degan to'plami, "Yosh tog'lar", "Sulaymon tog'i etagidagi o'ylarim" nomli she'rlari bor[10]. Bunday obrazlar gohida shoir dunyosini belgilovchi xususiyatdek taassurot qoldiradi. A'zam O'ktam she'rlarida esa o'quvchi qayta-qayta e'tiqod tasviriga duch kelaveradi. Aynan mana shu obraz orqali inson o'zini bu hayotga nega kelgani, nima uchun yashayotgani nafs va qalb, e'tiqod va isyon, baxt va dard deb atalgan bu hayot kurashida otalar tomonida turib o'g'illarga dalda bo'layotgan shoirdagi ezgulik ehtiyoji o'quvchini befarq qoldirmaydi[8.57]. Farzandining

muvaffaqiyatidan ota o'zini baxtli sezadi, hayotdan bahra oladi. Umid, orzu uning shikasta qalbini darmonlantiradi.

Aslida bu she'rlardagi qarashlar shoirning aynan o'zigagina tegishli holatdir, ammo uning obrazli ifodalashi o'quvchini o'z olami asiriga aylantirishi turgan gap.

Oy cho'chib tislana ortga nogahon,  
Teran bosh chayqadi, g'ijirlar og'ir.  
Kuli titkilangan o'choqdir osmon,  
Yaproqlar shivirlar,  
Titrashar dir-dir...[2.135]

“Uyqum qochgan kechada” she'rining qolgan satrlari ham shunday jozibador timsol, tashbehlariga boy, bu – katta mahorat belgisi. Shoir o'z ruhiy holatini shunchaki so'zlar tizmasi, qofiyalar ketma-ketligining qatiga yashirib qo'ya qolmaydi. U o'z kechinmalarini ifodalar ekan, o'zining cho'chib ortga tislanişida uning “shikasta”ligiga, ya'ni hazrati Muhammad alayhissalomning mushriklarning talabi bilan mo'jiza sifatida o'zining qoq ikkiga bo'lganlari va qayta o'z holatiga keltirganlariga ishora qilib, she'rdagi bu obrazning bardoshsizligiga yo'ysa, boshqa tomondan oy muallifning xurkak tuyg'ularining natijasi sifatida qarashni ilgari suradi.

“Omin” she'rida shoir ruhiyatidagi balandlik duolar bilan parallel tasvirlanadi. Shoir o'zidagi shijoatni e'tiqod butunligi bilan ifodalaydi. “Osh buyursin saharlik uchun, “Tarovih”dan qaytsin erkaklar” deydi muallif. Dunyo bu anduh, dunyo bu armon, dunyo bu Oliy ideal yo'lidagi bekat — makon. Dunyo bu sevinch, bu muhabbat va samimiy tuyg'ular makoni. Ana shu inson qalbidagi inja tuyg'ular bevosita dunyo deb atalmish makon bilan bog'liq ekan, ularni anglagan, his qilgan inson ko'zlarida goh mung, goh quvonch bo'lib porlaydi, yoki ikki tomchi ashk misol qalqiydi. Butun dunyoni yuragiga sig'dirgan shoir uni “buyuk armon”, “buyuk maqsad” libosiga o'rab, “Otam”lashi tayin hammaning, “Bo'tam”lagan ovoz chiqmasin” deya “omin”lash haqidagi jumla naqadar latif topilma.

Bu dunyodagi a'molini qalb va e'tiqodning birlashish u bilan bir butun deb tushungan muallif o'zining bu ulkan falsafasini umid bilan bog'laydi. Inson qismatida “tavba” mavjud ekan yaratgan rahmati ilinjida yashaydi.

Boshdan bulut arir, ketgay xatarlar,  
Har ne kamimizni Tangri but qilgay.  
Kim noumid bo'lsa, shayton atarlar,  
Urg'ochi shaytondir noumid qilgan[2.115].

degan misralarga “umid” tasvirini sig'diradiki, bu shoirning O'zi va o'zligini anglashdagi izlanishlarini ko'rsatadi.

Shoir ijodi mutolaasiga kirishgan o'quvchi an'anaviy obrazlarning yangicha talqinini ko'rishi mumkin. O'zbek mumtoz she'riyatida hamisha oshiq, ma'shuqa, raqib va do'st obrazlari mohiyatini saqlagan holda ularning vazifasini boshqa detallar va timsollarga ko'chiradi bu uning o'ziga xosligini namoyon etadi. Masalan;

Asl aybim –  
Tekis yo'lda qoqinmoqdur,  
Asl baxtim –  
O'zing ko'rmay sog'inmoqdur.  
Yer-u ko'kdan mudom izlab  
Xato qildim.

Seni topmoq yo'li

Doim topinmoqdur[2.118].

Aytish mumkinki, shoir she'rlarida murojaat etilgan e'tiqod tasvirida o'zbekona, sharqona milliy ruh ifodasini bor holicha idrok etish mumkin. A'zam O'ktam she'riyatida milliy mentallik e'tiqod ozodligi uchun, millat va yurtning obod kelajagi uchun qayg'urayotgan qahramon kechinmalari tasviri orqali namoyon bo'ladi.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Adabiyot nazariyasi, ikki jildlik, 1-jild, -T.: O'qituvchi, 1978.
2. A'zam O'ktam. Osmon yaqin, -T.: "ABU MATBUOT-KONSALT", 2011.
3. Boboyev T., She'r ilmi ta'limi, -T.: O'qituvchi, 1996.
4. Jo'raqulov U., Hududsiz jilva, -T.: Fan, 2006.
5. Islom tasavvuf manbalari, -T.: O'qituvchi, 2005.
6. Mahmudov Q., Ahmad Yugnakiyning "Hibbat ul-haqoyiq" asari haqida, -T.: Fan, 1972.
7. Yo'ldoshev Q., So'z yolqini, -T.: G'afur G'ulom, 2018.
8. Nishonova X., A'zam O'ktam ijodida estetik ideal, - Namangan, "Arjumand MEDIA" nashriyoti, 2023.
9. <http://oriftolib.uz/kutubxona/bahodir-karim-shoirning-otkr-soz/imlo>

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ S/5 (3)-2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис:** "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).